SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 10 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

13.00.00- Педагогика фанлари

Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda bo'lajak o'qituvchilarning Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorlash pedagogik muammo sifatida darajasi, salohiyati jixatidan ham muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Talabalarning tarbiyaviy ishlar tizimini rivojlantirish va davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishda boshlang'ich ta'lim tizimi alohida o'rin tutishi izohlangan.

Kalit so'zlar: mutafakkir, ta'lim, tarbiya, talaba va o'quvchi, ijtimoiy munosabat, dars, mazmun

Khaidarova Mahliyo Khabibullayevna
Termiz State Pedagogical Institute, senior teacher of the Department of Primary Education Methodology, Ph.D.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING EDUCATION

Abstract. This article is based on the fact that in addition to material factors in improving the system of continuous education in our Republic, improving the quality and ensuring the effectiveness of Education, methodological training of future teachers for teaching the discipline of Education is of great importance as a pedagogical problem. It is explained that the primary education system occupies a special place in creating the necessary conditions for the development of the system of educational work of students and their ability to operate in accordance with the requirements of the period.

Keywords: thinker, education, upbringing, student and student, social attitude, lesson, content

Хайдарова Махлиё Хабибуллаевна
Термезский государственный педагогический институт, старший преподаватель кафедры методики начального образования, к.э.н.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация. В данной статье обосновано, что наряду с материальными факторами совершенствования системы непрерывного образования в нашей республике, повышения качества и эффективности образования методическая подготовка будущих учителей к преподаванию дисциплины воспитание как педагогическая проблема имеет важное значение и по уровню, и по потенциалу. Объясняется, что система начального образования играет особую роль в создании необходимых условий для развития системы воспитательной работы учащихся и их способности функционировать в соответствии с требованиями периода.

Ключевые слова: мыслитель, образование, воспитание, ученик и ученик, социальное отношение, урок, содержание

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N47

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning normativ-huquqiy asoslari yaratilmoqda. “Davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanishda tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirishga bog‘liq[1]. Umumta’lim muassasalarida o‘quvchilarining yoshiga xos psixo-fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda ularda umuminsoniy qadriyatlar va barkamol ma’naviyatni, sog‘lom tarbiyaviy muhitni chuqur singdirish, o‘quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy va tarbiyaviy ishlarni yangicha ko‘rinishda tashkil etish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish va rivojlantirib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Markaziy Osiyoda tarbiyaga oid pedagogik qarashlarni rivojlanish tarixi o‘rganilganda ta’limda turli usullarning amaliyotda qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Sharqda azaldan yosh bolalarni tug‘ilganidan boshlab voyaga yetgunigacha ma’lum tartibda tarbiyalab borilgan[2]. Bolalarni yakka tartibda o‘qitishdan ko‘ra jamoa tartibida o‘qitilishi afzal deb hisoblangan. Bu uslubning ustunligi shundaki talabalar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadi. Ular birga ta’lim olganlarida doimo bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar hamda bu ularning tarbiyasi va nutqlarini rivojlantiradi. Ushbu holatdan shu narsa aniq bo‘ladiki, tarbiya ijtimoiy hodisa bo‘libgina qolmay, jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqalarini rivojlantiruvchi, tartibga soluvchi muhim asos ham hisoblanadi.

Jadid namoyondalaridan Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari ichida “Turkiy guliston yoxud axloq” asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o‘rganishda katta ahamiyatga molik asar hisoblanadi. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi” ilm-axloq haqida fikr yuritiladi[3].

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo‘lib o‘sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo‘l uzatmak kabidur” deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g‘oyat katta ahamiyatga ega.

O‘zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga “Pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fanidir, deb ta’rif berdi. Tabiiy bunday ta’rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Mutafakkir bola tarbiyasini to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. “Tarbiyaning zamoni”.
2. “Badan tarbiyasi”.
3. “Fikr tarbiyasi”.

4. “Axloq tarbiyasi”

“Tarbiyaning zamoni” bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. “Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidur” deb uqtiradi Avloniy. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog‘cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan[4].

Tarbiyaning zamoni haqida to‘xtalar ekanmiz, u tarbiyaning asosini tashkil qilishini anglashimiz mumkin bo‘ladi. Chunki badan tarbiyasi yoki fikr tarbiyasi ham aynan tarbiya zamonida amalga oshadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda asosiy urg‘uni tarbiya oluvchiga emas, tarbiya beruvchi shaxsiga qaratish o‘rinli deb hisoblaymiz. Taqlid va andoza olish nuqtayi nazaridan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari juda faol bo‘ladilar. Nazariy bilimlar asosiga emas, bevosita amaliy tajribalar asosiga qurilgan ta’lim ustuvor va beqiyosdir. Ta’lim-talaba bilishi, egallashi kerak bo‘lgan bilimlar manbai bo‘lsa, tarbiya-o‘zlikda mujassam bo‘lgan bilimlarni ya’ni nazariyani bevosita amaliyotga tatbiqi sifatida qaralishi o‘rinli bo‘ladi[5]. Abdulla Avloniy tarbiyani turli doiralarda turlicha, keng ma’noda talqin qiladi. Tarbiya birgina odob-axloq bilan chegaralanmaydi. Mutafakkir birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilishi lozimligini aytadi. Adibning izoh berishicha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir” deya ta’kidlaydi. Mutafakkirimiz badan tarbiyasini olib borish masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o‘qituvchilarning faoliyatlariga alohida e’tibor beradi. Ya’ni tarbiyali shaxs voyaga yetkazishda ota-ona va o‘qituvchilarni ahamiyatini yuksak baholaydi. Shuning uchun ham bizning ajdodlarimiz, yoshi keksalarimiz ta’lim-tarbiya masalasida inson shaxsi uning xususiyatlarini hisobga olib ish ko‘rganlar.

Buyuk mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiy yozganidek, ta’lim-tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini o‘rganish lozim. Alloma o‘zining “Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida” asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida batafsil fikr bayon etadi. Farobiy ta’limotida inson ta’lim yordamida barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish bilan ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, odob me’yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ega bo‘ladi[6]. U ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o‘z navbatida, “Fozil insonlar jamiyati”da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan mutafakkir sanaladi. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - insoniy fazilatni hamda ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Ta’lim-tarbiyaga oid qarashlar bugungi kunda ham dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Olimning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlaridan quyida na’munalar keltiramiz. “Bilim, marifat yaxshi axloq bilan bezanmog‘i lozim.” Ushbu fikr bilan har qanday bilim yoki kasb egasi tarbiya ko‘rgan bo‘lishi va unga amal qilishi kerakligini ta’kidlaydi.

Tasavvuf olamining allomalari Najmiddin Kubro, Fariddin Attor, Baxovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiylarning ijodiy faoliyati, boy ma'naviyati tufayli milliy tarbiya tizimining asoslari vujudga keldi[7].

Bu allomalarning asarlari o'rganish natijasida shu narsa ravshanlashadiki, tananing sog'lomligi nafaqat fikrning teranlashishini balki, uning ravshanlashishini ham kafolatlaydi. Zero, ko'plab allomalarimizning asarlarida ham bu o'z aksini topgan. "Munosib inson bo'lish uchun odamga ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati berilgan. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir" deydi Abu Nasr Forobiy o'z asarida. Bundan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'qitish jarayonida nafaqat ta'lim tizimini mukammal, balki tarbiyaviy jarayonlarni ham keng qamrovda olib borish kerakligini anglaymiz.

Tahlil va natija. Ta'limning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri-insonni jamiyatdagi keng faoliyatga tayyorlash ekan, ta'lim tizimiga qo'yilgan talab ham shu bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ta'limning eng maqbul yo'nalishlarini aniqlab, uni rivojlantirish istiqbollarini belgilab berish, jamiyat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar bilan uyg'un holda shu jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat ulkan vazifa qo'yiladi. Ta'lim tizimini tartibga solish va uni izchillik bilan rivojlantirib borish asosida esa mustaqil va erkin fikrlovchi o'quvchilarni kamol toptirish, rivojlantiirish, tarbiyalash ehtiyoji ham mavjud. Buning uchun esa ta'lim-tarbiya tizimini muntazam takomillashtirib, milliy tarbiya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta'minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini Tarbiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid ishlarni samarali tashkil eta olamiz va kutilgan natijalarga erisha olamiz[8].

Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg'unlashtirish, professor-o'qituvchilarning tarbiyaviy mas'uliyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uyg'unligini amalda ta'minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta'minlash mexanizmlari rivojlantirilib borilishi bugungi kun talabi bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlar jamiyatimizning turli sohalarida rivojlanish, o'sishlarga asosiy zamin bo'lmoqda. Shu bilan bir qatorda ta'lim jarayonini tashkil etuvchi mahoratli pedagoglarga bo'lgan ehtiyojni kundan-kun ortib borishi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda zamonaviy va kuchli pedagog o'z ustida muntazam ishlab, mahoratini oshirib borishi, keng dunyoqarashi, muallimlik mahorati bilan ta'lim oluvchilarni o'z ortidan ergashtirib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan bo'lishi lozim. Dunyo ta'lim tizimida bo'layotgan rivojlanish va o'zgarishlardan ortda qolmaslik uchun ta'lim jarayonidagi yangilanishlarni teran anglash va ularni amalda qo'llay olish bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilgan eng muhim talablardan biridir. Bu boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar zimmasiga juda ko'p mas'uliyatni yuklaydi, zero o'quv-metodik ta'minotini modernizatsiyalash, o'quv dasturi va rejalarini muntazam takomillashtirish, zamon talablariga har jihatdan moslab borishni taqozo etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 14-yanvar kuni mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida so‘zlagan “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak mavzusidagi ma’ruzasida “tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o‘quv reja va dasturlarni tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifa turibdi” deb ta’kidlagan edi. Ushbu dolzarb vazifalarni uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tarbiya fanini o‘qitishni tubdan isloh qilish tizimini takomillashtirishdan boshlash maqsadli bo‘ladi[4]. Buning uchun, avval, mavjud o‘quv-metodik ta’minotni tashkil etuvchi o‘quv-me’yoriy hujjatlar, o‘quv qo‘llanma, metodik ko‘rsatma va tavsiyalar hamda o‘quv-metodik majmualarning tarkibiy qismlarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish, shu orqali muammolarni aniqlash, ularga bugungi kun nuqtai nazaridan baho berish zarur deb hisoblaymiz.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tarbiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish ham o‘quv-me’yoriy hujjatlari Davlat talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlariga tayangan holda olib boriladi. Ushbu dasturlar asosida olib boriladigan ta’lim jarayoni negizida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini boshqa fanlar bilan bir qatorda Tarbiya fanini o’qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish vazifasi yotadi. Bu uzluksiz jarayon tizimli va izchillik bilan olib borilishini ta’lab etadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlashda oliy ta’limda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlari muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yangilangan o‘quv reja va daturlarni amalga oshirishda o‘quv-metodik ta’minotni boyitish hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash uchun innovatsion yondashuvlarni belgilab olish zaruriyati yuzaga keldi. XX asrning 70-yillari boshida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilar va pedagogika fakultetlari talabalari V.P.Bespalko, V.Kan-Kalik va boshqalarning ishlaridan foydalana boshladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning ***birinchi yo‘nalishi*** - fan, g‘oya, bilim, ko‘nikma va malaka uyg‘unligidan tashkil topgan bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik zaxirasini rivojlantirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari tanlanadi, zamonaviy-innovason(xorijiy) g‘oyalar ilgari suriladi, mavjud bilim avtomatlashishiga qaratilgan ta’lim mazmuni loyihalashtiriladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning ***ikkinchi yo‘nalishida*** - nazariy va amaliy bilimlar an’anaviy, masofaviy yoki aralash ta’lim shaklida o‘zlashtirilishi yoki yetkazish mazmuni aniqlab olinadi. ***Uchinchi yo‘nalishda*** aynan masofaviy ta’lim sharoitida nazariy va amaliy bilimlarnining modifikatsion (inversion, inkorporativ, adaptiv) qabul qilish va yetkazish usullari tatbiq etiladi va ***to‘rtinchi yo‘nalish*** asosida ***integrativ, yondashuvli va kognitiv*** kabi samarali jarayon tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qaroriga asosan Tarbiya darsligi amaliyotga joriy etildi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul

qilindi. Unga ko‘ra milliy ta’lim-tarbiya ko’rgan kadrlar tarbiyalash bugungi kunning asosiy va dolzarb masalasi sifatida e’tirof etilmoqda. Pedagogik jarayonni tashkil etishda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali milliy, umuminsoniy va qadriyatli ta’limni tashkil etish imkoniyatlari keng targ’ib qilinmoqda[6].

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona Tarbiya fani 1-9 sinflarda 2020-2021-o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilab berildi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartining boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fani bo‘yicha tayanch o‘quv reja, o‘quv dasturi, malaka talablari tahlil qilindi.

Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasiga muvofiq boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fani bo‘yicha belgilangan ta’lim mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlari:

O‘quv fani	**Sinflar**				**Haftalik umumiy soat**
	1 sinf	2 sinf	3 sinf	4 sinf	
Tarbiya	1 soat	1soat	1soat	1soat	1s (sinflar kesimida)

Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fanining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan ko‘nikmalar tahlil qilindi. Unga ko‘ra Tarbiya fanini asosiy mazmunini individual o’zlashtirilishini hisobga olgan holda bo‘lajak o’qituvchilarning kuchli bilim va tafakkurga ega bo‘lishi eng muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun umumta’lim fanlaridan o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqishga qo‘yiladigan umumiy talablar ham belgilab berilgan bo‘lib unga ko‘ra o‘quv-metodik majmua sifatida darslik ham bir qator umumiy talablarga muvofiq bo‘lishi lozim. Xususan, darsliklarning davlat ta’lim standartida belgilab berilgan talabga ko‘ra nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olinishi va o‘quv materiallari sifatida yangi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ko‘ra amaldagi Tarbiya fanidan darsliklar tahlil qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf Tarbiya darsliklarida o‘quv materiallari sifatida axborotlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanilganligi tahlil qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 1-4- sinfi uchun Tarbiya darsliklarida o‘quv materiallari sifatida axborotlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanilganligining tahlili:

Darsliklar	**Rasm ko‘rinishidagi axborotlar**	**Matn ko‘rinishidagi axborotlar**
1-sinf Tarbiya darsligi	70%	30%
2-sinf Tarbiya darsligi	60%	40%
3-sinf Tarbiya darsligi	55%	45%
4-sinf Tarbiya darsligi	55%	45%

O‘tkazilgan tahlillar asosida boshlang‘ich sinf Tarbiya darslarida turli ko‘rinishdagi bilimlar bilan ishlash imkoniyatining mavjudligi ma’lum bo‘ldi.

Shuningdek, yangi ma’lumotlardan o‘quv materiallari sifatida foydalanish bo‘yicha ayrim jihatlarga ahamiyat qaratilishi lozimligi aniqlandi:

- tasvir ko‘rinishidagi yangi ma’lumotlardan o‘quv materiallari sifatida foydalanishda ob’ektlarni tasvirlashning qoidalariga amal qilinishi lozim;
- ba’zi tasvir ko‘rinishidagi ma’lumotlar berilgan topshiriqni bajarishda muhim ahamiyatga ega emasligi;
- o‘quv materiallarida yangi ma’lumotning turli ko‘rinishlaridan foydalanib o‘qish, solishtirish va taqdim etishga o‘rgatish, shuningdek, turli ko‘rinishda berilgan ma’lumotlarni taqqoslash va ulardan foydalanishga o‘rgatish;
- yangi mavzuni tushuntirishda yangi ma’lumotlarning yetarli emasligi;
- har bir mavzuni tushuntirish va mustahkamlashda amaliy harakterdagi topshiriqlar berish;
- amaliy harakterdagi topshiriqlar uchun hayotiy namunalardan foydalanish.

Tasvir ko’rinishidagi axborotlarni tushuntirishda ma’lum qoidalar ishlab chiqilishi zarur. Va ushbu qoidalar doimiy ravishda dars davomida qo’llanilishi va o’quvchilar tomonidan ko’nikmaga aylanishiga erishilishi nazorat qilinishi kerak. Yangi axborot, ma’lumotlarni o’qitish jarayonida tasvirlarni to’ldirish uchun yozma, og’zaki va qo’shimcha adabiyotlar taqdim qilinishi kerak[3]. Ushbu jarayon muvaffaqqiyatli amalga oshirilganda sifat, samara ko’rsatkichi oshib boradi. Auditoriya muhiti, ichki imkoniyati va ta’lim oluvchilarning qabul qila olishiga qarab materiallarni turli ravishda taqdim etish, metodik imkoniyatlarni rivojlantirish, pedagogik jarayonni boshqarish, darsning asosiy maqsadi yangi bilim berishga erishiladi.

Xulosa. Ta’lim sohasida davlat bosh buyurtmachi bo‘lib, u bitiruvchilarga talabni jamiyatning ehtiyojidan kelib chiqib belgilaydi. Kishilik jamiyati doimiy rivojlanishda bo‘lib, unda erishilayotgan yutuqlar ta’lim samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Shuningdek, jamiyatda erishilgan yutuqlar ta’limda o‘z aksini topib boradi. Ya’ni, kishilik jamiyati va ta’lim jarayoni doimo qaytar a’loqada bo‘ladi. Bunda, ta’lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta’minlash ta’lim va shu bilan birga kishilik jamiyatining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Demak, Tarbiya fanini o‘qitish jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning talablariga javob beruvchi puxta tayyorgarlik darajasiga ega bitiruvchilarni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406 son Qonuni. 2016 yil 14 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/4545884
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son Qarori. https://lex.uz/docs/4749364.

6. Nilufar Maxsudovna Koshanova. Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish: davr talabi, etiyoj va zaruriyat. 2022. Volume 3.
7. Haydarova M.X. Boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini o'qitishning pedagogik asoslari// O'zbekiston milliy universiteti xabarlari. –Toshkent, 2022. B-221-224. ISSN 2181-7324.
8. Haydarova M.X. Model and psychological and pedagogical conditions conducive to the formation of managerial competenge of future primary school teachers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRS). - Vol. 7 No. 11, 2019. ISSN 2056-5852. P-90.